

"CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"

OUR INDEXING

zenodo



**Research Science and
Innovation House**

OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports



+998 (88) 808-21-07



<http://universalpublishings.com>



"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

"CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2025"



+998 (88) 808-21-07

<http://universalpublishings.com>

VOLUME 3, ISSUE 4



«Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi:

31.05.2025-yil.

Ushbu to'plamda «Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi 2025-yil 3-soni 4-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib:

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi:

Eshqarayev Samariddin Sadiridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti magistranti

TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.



Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Tilovbekova Aziza

Xoldorov Diyor

Ziyodulla Toshtemirov

Guliston Davlat Universiteti talabalari

Annotatsiya. Korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishda boshqaruv hisobining avtonom va integratsiyalashgan tizimlari asosida axborotlarni shakllantirish, hisobvaraqlarni avtomatlashtirish, xarajatlarni tahlil qilish va resurslardan foydalanishni nazorat qilish orqali hisob tizimining samaradorligini oshirish hamda asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini aniqlash.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi, avtonom tizim, integratsiyalashgan tizim, hisobvaraqlar,

Kirish(introduction): Hozirgi zamon korxonalarida buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish iqtisodiy faoliyatning barcha jabhalarida to'g'ri va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshqaruv hisobi tizimini to'g'ri tanlash va uni avtomatlashtirish orqali korxonada resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni tahlil qilish hamda foydani oshirish imkoniyatlari kengayadi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv hisobining avtonom va integratsiyalashgan tizimlarini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Boshqaruvni tashkil etish

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini rivojlantirish ularda boshqaruv hisobini tashkil etishning istiqbolli usullaridan foydalanishga bevosita bog'liq. Xalqaro tajribada korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning quyidagi ikkita tizimi mavjud:

– avtonom;


– integratsiyalashgan.

Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom tizimining xususiyati shundaki, unda moliyaviy va boshqaruv hisobi chegaralari aniq belgilangan bo‘ladi. Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini olib borish uchun 9100 “Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi hisobvaraqlar”, 9400 “Davr xarajatlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar” kabi tranzit hisobvaraqlardan foydalaniladi. Moliyaviy natijani aniqlashda esa sotishdan olingan sof tushumga yil oxiridagi TMZlar qiymati qo‘shilib, sarflangan barcha xarajatlar ayriladi. Integratsiyalashgan hisob tizimida xo‘jalik muomalalarini ifodalashda tranzit hisobvaraqlardan emas, balki yagona hisobvaraqlar tizimidan foydalaniladi. Bunda qoldiqqa ega bo‘lgan hisobvaraqlar bir vaqtning o‘zida ham moliyaviy hisobga, ham boshqaruv hisobiga tegishli bo‘ladi.

Korxonalarda integratsiyalashgan hisob tizimi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- buxgalteriya hisobining markazlashgan tizimi yaratish;
- moliyaviy, boshqaruv va ishlab chiqarish hisobini yuritish hamda ularni o‘zaro muvofiqlashtirish;

Korxonalarda buxgalteriya hisobi xizmatining markazlashgan tizimi singari 1-chizmada tasvirlangani bo‘ladi.



1-chizma. Korxonada buxgalteriya xizmatining tashkil etilishi

Amaliyotda korxonalarda tijorat sirining maxfiyligini ta'minlash uchun moliyaviy hisob hisobvaraqlarida faqat qoldiqlar ko'rsatilib, boshqaruv hisobi hisobvaraqlarida esa xo'jalik muomalalari to'lig'icha aks ettiriladi.

Umuman olganda, korxonalarda quyidagi holatlar integratsiyalashgan hisob tizimini tashkil etishga asos bo'ladi:

- korxonada faoliyatida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini boshqarishning markazlashtirilgan, amaliy jihatdan asoslangan mexanizmi mavjud bo'lmaganda;
- korxonada bo'linmalari o'rtasida hujjatlar aylanishi samarali bo'lmaganda;
- korxonaning boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan shartnomalar tuzish va boshqa iqtisodiy munosabatlarga kirishishini ta'minlab beruvchi axborotlar manbai shakllantirilmaganda;

Xulosa. Shunday qilib, savdo va sanoat korxonalarini boshqaruv hisobini integratsiyalashgan tizim bo'yicha tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish korxonada hisob tizimida tegishli byudjetlarning to'g'ri tuzilganligi, to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilganligi ustidan samarali nazorat o'rnatish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. G'.Berdiyev, J.Urazmatov & U.Chorshanboyev "Boshqaruv hisobi" Darslik. Guliston 2025.
2. A.Muxametov, G'.Berdiyev, & G.Turayeva. "Boshqaruv hisobi" o'quv qo'llanma. Guliston 2024.
3. Gulizahro, T. (2023). The importance of developing the exchange mechanism and online trade in the E-commerce system (in the example of grain trade). *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (2), 14-20.
4. Turayeva G. et al. Buxgalteriya hisobining usullari va tamoyillari // Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 53-55.
5. Zaripov, A., Anvarov, S., & Shamsiddinov, A. (2024). Qishloq xo'jaligidagi investitsiya jarayoni. *Modern Science and Research*, 3(5), 484-490.
6. Шукурова, У. А., Садикова, И. Э., & Бахадиров, Р. Г. (2019). Современные методы лечения клиновидных дефектов твердых тканей зубов. In *Актуальные проблемы стоматологии детского возраста и ортодонтии* (pp. 212-216).

7. Shukurova, U. A., & Gaffarova, S. S. (2022). Indicators Of Free Radical Oxidation Of Oral Fluid In Patients With Lichen Plus Of The Mucosus Cavity Of The Mouth. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 862-865.



AGRAR SOHADA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI

Jumayeva Z.Q., Jo`rayeva N.B.

Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada agrar sohada tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tarkibiy-funksional xususiyatlari hamda rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: agrar tadbirkorlik, qishloq xoʻjaligi, iqtisodiy islohotlar, mulkchilik munosabatlari, agrobiznes, iqtisodiy rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligi, raqobatbardoshlik.

Mamlakatimizdagi agrar islohotlar natijasi shuni koʻrsatmoqdaki, iqtisodiyotning agrar sohasida oziq-ovqat resurslarini koʻpaytirish uchun agrotijorat yuritishning barcha: yirik va oʻrta hamda kichik shakllarining oʻziga xos ijobiy xususiyatlari, koʻlami va mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Mamlakatimiz rivojiga tobora katta ahamiyat kasb qilayotgan agrar sohada tadbirkorlik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning belgilari va tarkibiy-funksional xususiyatlari, rivojlantirish qonuniyatlarini chuqurlashtirish talab etiladi.

Agrar sohada tadbirkorlik tushunchasi asosini koʻpgina hollarda dehqonni ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini, mazkur boʻgʻinning iqtisodiy munosabatlarini oila bilan bogʻliq xoʻjalikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berish, muammoni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish masalalarini hal qilish bugungi kunda iqtisodchi olimlar oldidagi ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, "Dehqon xoʻjaligi", "uy xoʻjaligi", "Xonadon xoʻjaligi", "Oilaviy tadbirkorlik" kabi tushunchalar muhim hisoblanadi. Ammo, ularning mazmuni bir-biridan farqli ravishda, har birining xususiyatlari va tushunchalar boʻyicha turli adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Fikrimizcha, hozirgi ekologik talablarni nazarda tutib, har bir iqtisodiy hududning oʻziga xos xususiyati, geografik joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy masalasini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik muammolari bilan shugʻullanuvchi olimlar va amaliyotchilar oʻrtasida ushbu masalaga yondashishda turli qarashlar, unda maʼlum bir qarama-qarshiliklar mavjud.

A.N.Asaul fikricha, tadbirkorlik- bu iqtisodiy faoliyatning oʻziga xos turi boʻlib, uning mohiyati bozor almashinuvi orqali oʻz aʼzolarining oʻziga xos ehtiyojlariga boʻlgan jamiyat talabini ragʻbatlantirishdan iborat boʻlib, bozor muvozanati buzilishi

orqali raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lishga qaratilgan. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik ma'lum bir sub'ektlar va tadbirkorlik faoliyatining ob'ektlari ishtirokini o'z ichiga oladi. I.V.Ukrainsevaning so'zlariga ko'ra, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar - bu xo'jalik faoliyatini olib boradigan va to'liq javobgarlikni o'z zimmalariga oladigan tadbirkorlarning o'zlari.

Rossiyaning "Bosh direktor" jurnali ikkita asosiy global muammo yo'nalishini etirof etadi:

✚ oziq-ovqatga muhtoj kishilarning darajasi va agrar munosabatlarning qoloqligi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi va oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi. Shu bois ko'pchilik ochlikdan aziyat chekmoqda. Zero, ishlab chiqarish hajmi o'sib borsa-da, och odamlar soni hali ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Birlashgan millatlar tashkilotining aholishunoslik jamg'armasi ma'lumotiga ko'ra 2023 yil 1 yanvardagi ma'lumotiga ko'ra hozirgi paytda dunyodagi nochorlar soni taxminan 1181,25 million kishini tashkil etadi, bu umumiy aholining taxminan 15 foizini tashkil qiladi. Dunyo aholisining 60 foizi Osiyo mamlakatlariga tug'ri kelishinini hisobga olsak, ushbu mamlakatlarda birlamchi ehtiyojlarni qondira olmaydigan aholi soni ko'pligini anglatadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda yashash minumimidan kam daromad ega kambag'allar, jumladan, Rossiyada 17,6 mln.(12.1%), Yevropa ittifoqida kambag'allar soni 85 mln.(17%) kishi, Amerika Qo'shma shtatlarida 40 mln. kishini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan, bu muammo birinchi va eng muhim hisoblanadi.

✚ Ikkinchi dunyo muammosi agrar munosabatlar bilan bog'liq. U turli mamlakatlarda qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi farq tufayli paydo bo'lgan. Ba'zi mamlakatlarda yangi yuqori samarali texnologiyalar va o'sish usullarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi sohasi yuqori darajada. Ammo ayrim mamlakatlarda o'tmish qoldiqlaridan kelib chiqqan holda bozor munosabatlariga mos mulkchilik shakllari va munosabatlari to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Ushbu bo'shliq mamlakatlar o'rtasidagi qishloq xo'jaligi munosabatlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu holat O'zbekiston respublikasiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Darhaqiqat, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning o'zgarishlarga tez moslashuvchan sohasi sifatida ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, xizmat ko'rsatishning yangi va zamonaviy turlarini kengaytirish, eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan kichik va agrobiznesni rivojlantirishga mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim sohalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Prezidentimiz mustaqil taraqqiyot davrining boshidanoq kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish biz uchun muhim vazifa bo'lib qolishini alohida ko'rsatib berganlar. Bunda, iqtisodiyotning mazkur sohasi uch asosiy masalani hal etishi kerakligiga alohida urg'u berib o'tilgan.

- birinchidan, yaqin 5-10 yil ichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 50-60 foiziga yaqinini ishlab chiqarishi kerak.

- ikkinchidan, ular aholi bandligi va daromadlari o'sishining eng muhim manbai bo'lmog'i zarur.

- uchinchi masala – mulkdorlar sinfini mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni taminlaydigan asosiy kuch sifatida shakllantirish zarur.

Mazkur vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar orqali eng avvalo iqtisodiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishning muhim vositasi hisoblangan mulkchilik munosabatlarini mazmunan o'zgartirishga harakat qilindi. Rejali iqtisodiyot sharoitida asosan davlat mulki monopoliyasi hukmronligi va bu munosabatlarga o'ta rasmiyatchilik bilan yondashuv mulkchilik munosabatlarining samaradorligini deyarli yo'qqa chiqargan edi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning markaziy yo'nalishi ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish muammolariga qaratildi. Iqtisodiyot nodavlat sektorining shakllanishida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining ta'siri ahamiyatli bo'ldi. Bu boradagi islohotlarning maqsadga yo'naltirilganligi, har tomonlama asoslanganligi va izchilligini ta'minlash maqsadida hukumat darajasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi ishlab chiqilib, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ma'lumki, tadbirkorlikning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihat - ularning qimmatli vaqtlarini olib, o'zining murakkabligi va takroriyliigi bilan noxush taassurot paydo qiladigan moliyaviy, statistik va boshqa turdagi hisobotlarni topshirish jarayoni hisoblanadi.

Bosqichma-bosqich amalga oshirilgan agrar sohadagi bozor islohotlarining samaradorligi xususiy mulkchilikka asoslangan turli xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirishga imkon beruvchi ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida mintaqalarning tabiiy-iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib turli xo'jalik yuritish

shakllaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Agrar sohada olib borilayotgan turli xil islohotlarga qaramay, sohada ba'zi bir muammolar uchraydiki, bu muammolar qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, agrar soha rivojida qishloq xo'jaligi korxonalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi sabablar quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- nosog'lom raqobat va monopolistik vaziyatlarning mavjudligi;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalar manfaatlari uyg'unlashtirilmaganligi va ularning moliyaviy ahvolini sekin yaxshilanayotganligi;
- moddiy-texnika ta'minoti korxonalarini xizmatlari sifatining nisbatan pastligi va tannarxining yuqoriligi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, tayyorlash va qayta ishlash jarayonida kooperatsion faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmini to'liq shakllanmaganligi;
- agrosanoat majmuasida narx nomutanosibligining vujudga kelganligi va uning chuqurlashib borayotganligini qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini iqtisodiy va moliyaviy ahvoriga jiddiy salbiy ta'siri;
- moddiy-texnika resurslari va xizmatlariga bo'lgan narxlarning erkinlashtirilishi, ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari o'sish dinamikasi bilan bog'lanmaganligi;
- qayta ishlash, tayyorlash va savdo korxonalarining monopol holati tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlariga belgilanadigan narxlarning cheklanganligi;
- qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, agrar soha mahsulotlariga bo'lgan talab elastikligining pastligi tufayli turli tarmoqlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlari o'zgarish sur'atlarining turli xilligi yoki narxlar dispariteti va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida ham keltirilgan maqsadlaridan biri tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foiz va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazishdan iborat.

Ayiniqsa, agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakitimizning muhim vazifalaridan biridir. Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng muhim sohalardan

biridir. Aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi barcha kishilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan birga, ularni ish bilan band qiladi. Buni amalga oshirish tadbirkorlik va qishloq xo'jaligi sohasi bilan birgalikdagi faoliyatiga bog'liq. Ushbu hamkorlik iqtisodiyotning barqarorlashuvi hamda global iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Global iqtisodiy rivojlanishda agrar tadbirkorlik qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari va bu bilan bog'liq xavflar tufayli bir qator muammolar, qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladi. Shu bois, qishloq xo'jaligida yuqori samarali, raqobatbardosh tadbirkorlik foaliyatini shakllantirish zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

2. Asaul A. N. / Organizatsiya predprinimatelskoy deyatelnosti: uchebnik dlya vuzov

3. Украинцева И. В. / Предпринимательская деятельность и ее особенности в сельском хозяйстве [Электронный ресурс] / И. В. Украинцева, А. И. Авдеева // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – 100–103 с. – УРЛ: <http://e-concept.ru/2017/770442.htm>

4. Перспективы сельского хозяйства в России и в мире: основные направления [Электронный ресурс] // Журнал «Генеральный директор». – 02.06.2023.

5. Джумаева, З. (2025). ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ЕЕ АКТУАЛЬНОСТЬ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (3), 262-266.

6. Жумаева, З. К. (2019). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. *ББК 65.0501 А 43*, 190.

7. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.

8. Джумаева, З.К., и Ш, К.М. (2025). О 'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARI MARKETING FAOLIYATI HOLATI TANLILI. *АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ИННОВАЦИЙ*, 1 (7), 186-189.

9. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал*

искусственного интеллекта, 1 (1), 483-488.

10. Жумаева, З. К. (2024). Мобильный Маркетинг Как Эффективное Средство Стимулирования Сбыта Товаров И Услуг. *Miasto Przyszłości*, 54, 697-702.

11. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

12. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.

13. Джумаева, З.К., и Гулямова, Н.Г. (2025). О 'ZBEKISTONDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIVGA SOLISH. ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА, 1 (5), 152-159.

14. Жумаева, З. К., & Ахмедова, Ф. Р. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 323-330.

15. Jumayeva, Z. Q., & Matkarimov, G. (2025). MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O 'SISHIGA TA'SIRI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 205-212.

16. Джумаева, ZQ (2017). ТЕОРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НА РЫНКАХ ТРУДА РАЗВИТЫХ СТРАН. *Инновационное развитие*, (4), 64-

2023

SANOAT KORXONALARINI ILMIY - TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA
QILISHNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Choriyev J.B.

Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat korxonalarini ilmiy-texnologik modernizatsiya qilishning zarurati, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Muallif tomonidan modernizatsiya tushunchasining nazariy asoslari, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlari, hamda bu jarayonlarning o'zaro ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ilmiy-texnologik modernizatsiya, sanoat korxonalari, oziq-ovqat xavfsizligi, yog'-moy sanoati, innovatsiya, texnologik yangilanish.

Rivojlangan mamlakatlarda an'anaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining samaradorligi chegaraviy nuqtasiga yaqinlashib, so'nggi yillarda yuz bergan Covid-19 pandemiyasi, Rossiya-Ukraina mojarolari oqibatida jahonda oziq-ovqat xavfsizligi muammolari keskin tus olib, unumdorlikning yillik o'sish sur'ati pasayib bormoqda. Bu esa O'zbekistonda import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini mahalliyashtirish choralarini ko'rishni taqozo etadi. Shu bilan birga xorijiy iste'molchilar talabi parametrlarini o'rganish, moslashtirilgan (customize)¹ mahsulotga bo'lgan ehtiyojning oshib borayotganligini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni ilmiy-texnologik modernizatsiyalash asosida, jahon bozorlaridagi paydo bo'lgan bo'shliqlarni egallash uchun, eksport hajmlarini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shu asosda, yangi O'zbekistonda rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tishi mamlakatning texnologiya va fanni rivojlantirish sohasidagi siyosatining eng muhim maqsadi sifatida belgilangan bo'lib, unga erishish milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va oxir-oqibat, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini shakllantirish uchun zarur shartga aylanadi.

Iqtisodiyotni globalashtirish istiqbollarning mavjud salbiy baholariga qaramay, zamonaviy dunyoda g'arb mamlakatlarini texnologik modernizatsiya qilish namunaviy xarakterga ega va u innovatsion texnologik rivojlanish modeliga asoslangan. Rivojlanayotgan mamlakatlarga uning tarqalishi har bir mamlakatning iqtisodiy siyosati, ustuvorliklari, ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan bog'liq. Bugun O'zbekistonda jahon oziq-ovqat bozoridagi tanqislik tufayli yog'-moy mahsulotlari bozorida o'z o'rnini egallash uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Shuning uchun yog'-moy sanoatini

¹ Customize - kastomizatsiyalash, bugungi kunda biznesda nisbatan yangi inglizcha so'z bo'lib, iste'molchining individual ehtiyojlariga tovar va xizmatlar parametrlari va xususiyatlarini moslashtirishni bildiradi.

ilmiy-texnologik modernizatsiyalashga, shuningdek modernizatsiyalashning samaradorligini baholashga ehtiyoj mavjud.

Iqtisodiy kompleksning rivojlanishi va samarali o'sishini ta'minlaydigan jarayonning mazmunini chuqurroq aniqlash uchun tadqiqotimizda modernizatsiyaga oid konseptual tushunchalarni tahlil qilamiz. "Modernizatsiya" tushunchasi XX asr o'rtalarida g'arb mamlakatlarida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafrvutlarni bartaraf etish masalalarini o'rganishda umumiy ilmiy muomalaga kiritilgan. Shu bilan birga, shuni tan olish kerakki, modernizatsiya jarayoni yangi emas; u turli davrlarda turli mamlakatlar, mintaqalar, tarmoqlar, korxonalarda tarixiy o'zgarishlarga hamroh bo'lgan. Shu munosabat bilan iqtisodchi olimlar A.V.Vaxabov va Sh.X.Hojibakievlar modernizatsiya to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirishgan: "Modernizatsiya ingliz leksikonidagi modern (lotinchada modernys) so'zidan olingan bo'lib, 1500 yildan buyon "zamonaviy, qadimiy bo'lmagan, bugungi kunda paydo bo'lgan" degan ma'noni anglatib kelmoqda."

U.A. Madrahimovning fikricha modernizatsiya qilish jarayoni ikkiga: ijtimoiy hamda iqtisodiy turlarga ajraladi. Iqtisodiy turida odatda zamonaviy ishlab chiqarish fondlarini shakllantirish bilan bog'liq faoliyat amalga oshiriladi. Ushbu jarayon ostida birinchidan, yangi ishlab chiqarish birliklarini yaratish nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, mavjud eski fondlarni yangilash tushuniladi. Modernizatsiya qilishning ikkinchi turi ijtimoiy sohalarini qamrab oladi va ijtimoiy modernizatsiya jarayoni inson omili bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy modernizatsiya jarayoni o'z ichiga zamonaviy bilim va malakaga ega kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, uni ishlab chiqarishning zamonaviy talabiga moslashtirish, inson omilini tashabbuskorlik ruhiyatini rivojlantirishni oladi.

Bizning fikrimizcha, bu ikki jarayon, texnik va texnologik modernizatsiya nuqtai –nazaridan, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zaro ta'sirga ega. Iqtisodiy modernizatsiya jamiyatda sifat o'zgarishlarini, ijtimoiy yangilanishni talab etadi, yoki aksincha ijtimoiy modernizatsiya yangi texnika va texnologiyalarning yaratilishiga turtki bo'ladi. Shu bilan birga inson omili fondlarni yangilashda, ma'lum darajada to'siq bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, texnologik modernizatsiya iqtisodiy tizimning turli darajalarida amalga oshirilishi mumkin: korxonalar, mintaqalar, tarmoqlar, mamlakat darajasida.

Sanoat sub'ektlariga nisbatan modernizatsiyaning eng muhim turi texnologik modernizatsiya bo'lib, bu texnologik yangiliklarni joriy etish orqali ishlab chiqarish kuchlarini sifat jihatidan takomillashtirishning progressiv jarayoni hisoblanadi. Shuning

uchun, ilmiy-texnologik modernizatsiya tushunchasini chuqurroq tahlil qilish o‘rinlidir, uning talqini ham ilmiy adabiyotlarda aniq belgilanmagan.

Adabiyotlar:

1. Джумаева, З. (2025). ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ЕЕ АКТУАЛЬНОСТЬ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (3), 262-266.

2. Жумаева, З. К. (2019). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. *ББК 65.0501 А 43*, 190.

3. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.

4. Джумаева, З.К., и Ш, К.М. (2025). О 'ЗВЕКИСТОНДА ЯЕНГИЛ САНОВАТ КОРХОНАЛАРИ МАКЕТИНГ ФАОЛИЯТИ НОЛАТИ ТАҢЛИЛИ. *АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ИННОВАЦИЙ*, 1 (7), 186-189.

5. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.

6. Жумаева, З. К. (2024). Мобильный Маркетинг Как Эффективное Средство Стимулирования Сбыта Товаров И Услуг. *Miasto Przyszłości*, 54, 697-702.

7. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

8. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.

9. Джумаева, З.К., и Гулямова, Н.Г. (2025). О 'ЗВЕКИСТОНДА МИНТАҚАНИ КОМПЛЕКС РИВОҶЛАНТИРИШНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ТАРТИВГА СОЛИШ. *ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА*, 1 (5), 152-159.

10. Жумаева, З. К., & Ахмедова, Ф. Р. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ

ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 323-330.

11. Jumayeva, Z. Q., & Matkarimov, G. (2025). MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O 'SISHIGATA' SIRI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 205-212.

12. Джумаева, ZQ (2017). ТЕОРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НА РЫНКАХ ТРУДА РАЗВИТЫХ СТРАН. *Инновационное развитие* , (4), 64-66.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA
MOTIVATSIYAVIY OMILLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY VA
USLUBIY ASOSLARI

Hasanova Sh.Sh.

Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati va uni rivojlantirishda motivatsiyaviy omillarning o'zini tahlil qilingan. Tadbirkorning individual xususiyatlari, iste'molchi bilan bo'lgan munosabatlari, marketing tadqiqotlari hamda ijodkorlik va innovatsion yondashuvlar asosida samarali tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, motivatsiya, iste'molchi ehtiyojlari, innovatsiya, bozor iqtisodiyoti, marketing tadqiqotlari, ishbilarmonlik.

Bozor iqtisodiyoti murakkab va o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan xo'jalik yuritish mexanizmi hisoblanadi. Bu jarayonda ro'y beradigan har qanday voqea va hodisalar, iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy mavqeni o'zida birlashtirganligi oqibatida, bunday turli tomonlamalik yondoshuv iqtisodiyotni boshqarish mexanizmini yanada murakkablashtiradi. Shu sababli, iqtisodiyotning kutilmagan muammolari ommaviy xarakterga ega bo'lib, ularni hal etishning tashkiliy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarini o'zgartirishga majbur bo'linadi.

Jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolar asosan aholi o'rtasida paydo bo'lishi, ya'ni, buning tub sabablaridan biri aholi real daromadlarining pasayishi va ishsizlikning ko'payishi oqibatida yuzaga keladi. Bu jarayonda muammolarning yechimini topishda tadbirkorlik faoliyatini to'g'ri tashkil qilinishi va rivojlantirish orqali muammolarni yumshatish yoki bartaraf qilishga imkon tug'iladi.

Har bir mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va boshqarish borasida o'ziga xos to'plangan uzoq yillik tajribalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ammo, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish ham boshqarish ham murakkab kechadi va buni tartibga solish hamda rivojlantirish tadbirkorning faqat o'ziga bog'liq bo'lmaydi. Bunda turli ta'sir etuvchi omillar va rivojlantirishga ko'maklashuvchi omillar ham ishtirok etadi.

Tadbirkorlik faoliyatini to'g'ri tashkil qilish uni boshqarish jarayonida kutilmagan hamda tadbirkorlik yo'lida uchraydigan har qanday to'siq va muammolarni bartaraf qilishga shuningdek, foyda olish maqsadida tadbirkor barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda o'z mablag'ini ishga tikkan holda samarali faoliyat yuritishini talab etadi. Shularni hisobga olib, tadbirkorlik faoliyati bu jamiyatda iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos bir turi bo'lib, uning negizida tadbirkorning mustaqil tashabbusi, ma'suliyati yuzasidan javobgarligi, ijodkorligi, o'z g'oyasiga asoslangan hamda foyda olishga qaratilgan maqsad sari undovchi omillar sifatida shakllanadi.

Har qanday tadbirkorlik faoliyati o'ziga xos iqtisodiy faollikning alohida unsuri hisoblanib, uning boshlang'ich bo'g'ini ma'lum bir g'oya va fikrlash faoliyati yoki uning natijasi bilan uzviy bog'langan bo'ladi, faqat u keyin moddiy shakl sifatida yuzaga keladi.

Tadbirkorning fikrlash natijalarini moddiy shaklga o'tishi bu tadbirkor o'z faoliyatida yangiliklarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilish orqali, mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini o'zgartirgan holda korxonani ishlab chiqarish tarkibida tub o'zgarishlar sodir bo'lishi tadbirkordan ijodkorlikni talab etadi.

Tadbirkorlik faoliyatining ijodkorlik jihatlari boshqaruvning yangi tizimida ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishning yangi usullari yoki yangi zamonaviy hamda ixcham texnologiyalarni tadbiriq etishda o'z samarasini beradi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish faqat ish jarayoni yoki ishchi xodimlarni boshqarish bilan yakun topmaydi, balki yangi tug'ilgan fikrlar va ijodkorlikni to'g'ri qo'llay olish ham boshqaruvda qiyin kechadi. Shu bois, har qanday jarayonda tadbirkor o'z faoliyatining asosiy sub'ekti bo'lib hisoblanadi. Biroq, barcha sohalarda ham tadbirkor yagona sub'ekt emas, balki, har qanday holda ham u ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmatning iste'molchisi, turli vaziyatlarda raqobatchi sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, ba'zi hollarda davlat bilan o'zaro hamkorlik qilishga majbur. Shu bilan birga iste'molchi ham, davlat ham, yollanma (ishchi) xodim ham tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari sifatida e'tirof etiladi.

Tadbirkor bilan iste'molchi o'rtasidagi munosabatlar doimiy bo'lgan va davom etuvchi jarayon bo'lib hisoblanadi, bu jarayonni tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini doimiy baholash talab etiladi. Bunday sharoitda tadbirkor faol sub'ekt kategoriyasi sifatida gavdalanadi hamda iste'molchi bilan o'zaro bo'ladigan munosabatlarni tahlil qilishda iste'molchi tadbirkorlik jarayonining indikatori rolini bajaradi. Iste'molchining ijobiy

bahosiga ega bo'lgan holdagina tadbirkorlik faoliyatini yanada uzviy tarzda amalga oshirilishi, aks holda tadbirkor raqobatda sinishi yoki o'z faoliyatini tugatishi mumkin.

Tadbirkor yaratgan tovariga iste'molchi tomonidan baho beriladi shundan so'ng u yoki bu tovarni xarid qilishga tayyorligi ma'lum bo'ladi.

Tadbirkor kelajakdagi o'z faoliyatini rejalashtirishi va tashkil qilishida iste'molchining kayfiyati, istagi, manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritishi talab qilinadi.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday tadbirkor iste'molchining manfaatlarini e'tiborga olgan holda harakatlanishi lozim aks holda iste'molchiga ta'sir qilishning boshqa imkoniyati yo'q. Bu esa tadbirkor doimo iste'molchi manfaatlariga muvofiq harakat qilishi shartligini bildirmaydi, balki tadbirkor yangi tovarni yaratsa iste'molchi didiga va daromadiga mos kelsa iste'molchi so'zsiz shu tovarga bo'lgan talabi shakllana boshlaydi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishning quyidagi usullarini keltirib o'tish mumkin:

- Tadbirkorning iste'molchi manfaatlarini aniqlash usuli;
- Tadbirkor o'z faoliyatidan kelib chiqib yangi tovar yoki xizmatlarini "majburan iste'molchi ongiga singdirish" usuli;
- Tadbirkor marketing tadqiqotlarini o'tkazish orqali iste'molchi talablarini o'rganish va iste'molchi kutmagan tovarlarni yaratish usuli.

Yuqoridagilarni hisobga olib, tadbirkor faoliyatining asosiy maqsadi bozorda o'z iste'molchilariga ega bo'lish uchun o'z tovarlariga bo'lgan ehtiyojni doimiy aniqlashdan iboratdir. Bu holatda tadbirkor o'z iste'molchilariga ega bo'lishda quyidagi omillarni hisobga olishi kerak: tovarning yangiligi va uning xaridor manfaatiga mos kelishi, sifati, narxi, tovarning universallik darajasi, uning tashqi ko'rinishi, xaridor talabiga mosligi, sotuvdan keyingi servis xizmat, tovarning davlat va halqaro standartlarga mosligi, reklamaliligi hamda xaridor diqqatini o'ziga jalb qilishi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish nuqtai nazaridan tadbirkor faol sub'ekt sifatida shakllansada, tadbirkorlik jarayonining o'zi, uning ish faoliyati samaradorligida iste'molchi faol ahamiyatga ega bo'ladi buni esa tadbirkor hech qachon rad eta olmaydi.

Tadbirkorlik faoliyati faolligini ta'minlovchi omillardan keyingisi bevosita tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari va ishga doir sifatleri tadbirkorlikni hatti-harakatlarini shakllantiruvchi kuchi bo'ladi. Aynan hozirgi vaqtda tadbirkorning ishga doir sifatleri quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- bozorning tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini tahlil qilish yo'li bilan iqtisodiy xo'jalik tizimida o'z o'rnini topishi;
- shaxsiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishga tayyorlik qobiliyati;
- marketing tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqqan holda, dastlabki tadbirkorlik hisob-kitoblarini amalga oshirishi;
- tadbirkorlik loyihasini amalga oshirishda rahbarlikni to'g'ri yo'lga quyish qobiliyati;
- tadbirkor o'zining g'oyasi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishi va uni amalda nazorat qilishi;
- yangi texnik, texnologik g'oyani birinchi bo'lib hayotga tadbiq etish hamda ushbu g'oyadan amalda foydalanish, undan qanday yakuniy natija, mahsulot yoki xizmatlar olish mumkinligini tasavvur qila olishi. Bu keltirib o'tilgan tamoyillar tadbirkorning ishbilarmonlik xususiyatidan kelib chiqib, undan ijodkorlikni talab etadi.

Tadbirkorda ijodkorlik qobiliyatining mavjudligi va uni takomillashtirish borasida Y.Shumpeter fikriga asosan, "tadbirkor boshqalar e'tibor qilmagan va bilmagan ishlarga e'tibor qilib, faoliyat yuritish imkonini beradi" deb ta'kidlab o'tgan.

Darhaqiqat, bugungi zamon tadbirkori insonlar e'tiboriga tushmagan mahsulot va xizmatlarni yaratishi va shu bilan birga inson ko'ngligiga o'zining yangi mahsulotlari bilan kirib borishi bu tadbirkorning ijodkorlik qobiliyatiga shaxsan bog'liqdir.

Tadbirkorning ishbilarmonlik va o'ziga ishonuvchanlik omili bunda har bir tadbirkordan yuqorida darajada bozor sharoitida ishbilarmonlikni talab qiladi, bu jarayonda tadbirkor o'ziga kuchiga qattiq ishonadi. Shiddatli raqobat sharoitida tadbirkorning ishbilarmonligi katta foyda keltirsada, ammo ishonuvchanlik raqobat kurashida tadbirkorning raqobatda engilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Bu holatda tadbirkor barcha jarayonlarni chuqur o'rganib ish boshlagani maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Джумаева, З. (2025). ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ЕЕ АКТУАЛЬНОСТЬ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (3), 262-266.

2. Жумаева, З. К. (2019). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. *ББК 65.0501 А 43*, 190.

3. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной

Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга
Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.

4. Джумаева, З.К., и Ш, К.М. (2025). О 'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARI MARKETING FAOLIYATI HOLATI TANLILI. *АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ИННОВАЦИЙ*, 1 (7), 186-189.

5. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.

6. Жумаева, З. К. (2024). Мобильный Маркетинг Как Эффективное Средство Стимулирования Сбыта Товаров И Услуг. *Miasto Przyszłości*, 54, 697-702.

7. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

8. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.

9. Джумаева, З.К., и Гулямова, Н.Г. (2025). О 'ZBEKISTONDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIVGA SOLISH. *ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА*, 1 (5), 152-159.

10. Жумаева, З. К., & Ахмедова, Ф. Р. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 323-330.

11. Jumayeva, Z. Q., & Matkarimov, G. (2025). MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O 'SISHIGA TA'SIRI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 205-212.

12. Джумаева, ZQ (2017). ТЕОРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НА РЫНКАХ ТРУДА РАЗВИТЫХ СТРАН. *Инновационное развитие*, (4), 64-66.

ОСТЕОАРТРИТДА ADAMTS-4 ВА ADAMTS-5 ФЕРМЕНТЛАРИНИНГ
КЛИНИК АҲАМИЯТИ

Шерматов Холбек Фахритдинович,
Эшмирзаева Аида Абдуғаниевна

*Термиз иқтисодиёт ва сервис университети,
Тиббиёт факультети
Тошкент тиббиёт университети*

Мавзунинг долзарблиги: Остеоартрит (ОА) – сурункали, прогрессия қилувчи бўғим касалликларидан бири бўлиб, аҳолида ногиронлик ва ҳаёт сифати пасайишига олиб келувчи асосий омиллардандир. Унинг патогенезида бўғим тоғайининг парчаланиши ва яллиғланиш элементлари муҳим роль ўйнайди. Агрекан протеогликанини йўқ қилувчи ADAMTS-4 ва ADAMTS-5 ферментлари остеоартритнинг асосий патоген элементларидан бири сифатида қаралмоқда. Уларнинг даражасини аниқлаш ва клиник ҳолат билан боғлиқлигини ўрганиш – диагностика ва даволаш стратегияларини индивидуаллаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

Методология: Тадқиқотга остеоартрит ташхиси қўйилган 120 нафар бемор жалб қилинди. Улар қуйидаги гуруҳларга ажратилди:

1-группа (n=90): Синовиал суюқликда ADAMTS-4 ва ADAMTS-5 ферментлари ELISA усулида аниқланди.

2-группа (n=30): Клиник ва радиологик баҳолаш ўтказилди.

Назорат гуруҳи (n=30): Соғлом субъектлар.


Барча беморларда оғриқ даражаси (VAS), функционал ҳолат (WOMAC) ва радиологик ўзгаришлар (Kellgren–Lawrence) баҳоланди. Статистик таҳлил SPSS 26.0 дастурида олиб борилди, $p < 0.05$ ишонарли деб қабул қилинди.

Натижалар: 1-группа беморларида ADAMTS-4 (128.9 ± 13.6 pg/ml) ва ADAMTS-5 (103.5 ± 10.7 pg/ml) ферментлари даражалари назорат гуруҳига нисбатан аниқ юқори ($p < 0.001$) экани кузатилди.

Шунингдек, ферментлар даражалари VAS ($r = 0.63$) ва WOMAC ($r = 0.60$) кўрсаткичлари билан ўртача кучли мусбат корреляция кўрсатди ($p < 0.01$). Radiologik баҳолаш натижалари (Kellgren–Lawrence балллари) ҳам ферментлар даражалари билан мусбат боғлиқликка эга экани аниқланди.

Хулоса: Остеоартрит патогенезида ADAMTS-4 ва ADAMTS-5 ферментлари тоғай тўқимасининг деструкциясида ҳал қилувчи роль ўйнайди.

Улар клиник кўрсаткичлар – оғриқ ва функционал ҳолат билан бевосита боғлиқ бўлиб, остеоартритнинг эрта диагностикаси ва даволаш жараёнида биомаркер сифатида қўлланилиши мумкин. Ушбу ферментларга йўналтирилган терапевтик агентлар келгусида остеоартритни самарали даволаш учун янги имкониятлар яратади.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI YOZISHGA O'RGATISHDAN
OLDINGI QOIDALAR MAJMU'I.

G.Z.Eshbekova

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Sirtqi bo'lim, Maktabgacha va boshlang'ich
yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga yozishni o'rgatish vazifasini amalga oshirishda qoidalarga rioya qilish xususida fikrlar berilgan. Bolalarga yozishga o'rgatishda tarbiyachi pedagoglar vazifalari, hamda yozishga o'rgatishdan oldingi qoidalarga amal qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, o'yin, yozish, bola, usullar. qo'l mushaklari

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, maktab ta'limiga tayyorlash sifatini oshirishning barcha jihati belgilab berildi. Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar va muammolarni bartaraf etish, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, bir qator qarorlar tasdiqlandi. Xususan maktabgacha talim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlari belgilash hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo'ldi. Maktabgacha ta'lim sohasida ta'limiy faoliyatlarga innovatsion yondashuv talab etilmoqda xususan bu bolalarning nutq muloqoti savodxonligi yozish ko'nikmalari shu jumladandir. Maktabgacha yosh davrida o'qish va yozishga o'rgatishni izchillikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Maktabgacha yoshidagi bolalarni savodxonlikka o'rgatish bo'yicha olib boriladigan ishlar D.B.Elkoninning nazariy tamoyillarga asoslanadi. Savodxonlikka o'rgatishning maktabgacha yoshga mo'ljallangan shakl va metodlari D.B.Elkonin metodi asosida L.Ye.Jurova tomonidan ishlab chiqilgan. Bolalar tomonidan savodxonlikni egallash imkoniyatlari va xususiyatlarini o'rganishga hamda buning uchun eng optimal yosh davrini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotda N.S.Voronsova 5-6 yoshli bolalar savodxonlikni o'rganishda tanlovchan tipdagi qabul qilish xususiyatiga ega

ekanligini, 6 yoshdan esa o'qishga e'tiborli bo'lishini aniqladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida savodxonlikka o'rgatish bolalarda elementar o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini bajarishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi, chunki u har kuni turli-tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqozo etadi. Ammo qisqa muddat ichida bolada chiroyli, tez va bexato yozish malakalarini o'stirish mumkin eina, buning uchun bir necha yillik mehnat talab etiladi. Yozishga o'rgatish uchun bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan vaqtlaridan boshlab izchil mashqlar olib borish zarur. Yozish - bu bola qalam bilan harflar yaratishdan ancha oldin boshlangan jarayon.

Bu maktabgacha ta'lim davrida yozishdan oldingi ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi, bu esa bolaning harflarni shakllantirish va qalamni boshqarishni o'zlashtira olishi zarurdir. Yozuvdan oldingi ko'nikmalar - bu bolalar yozishdan oldin rivojlanishi kerak bo'lgan asosiy ko'nikmalar. Ushbu ko'nikmalar bolaning qalamni ushlab turish va ishlatish qobiliyatiga, chizish, yozish, nusxa ko'chirish va rang berish qobiliyatiga hissa qo'shadi. Yozishdan oldingi ko'nikmalarning asosiy komponenti - bu yozma shakllar. Bu ko'pchilik harflar, raqamlar va dastlabki chizmalardan iborat bo'lgan qalam zarbalari hisoblanadi. Ular odatda ketma-ketlikda va yoshga xos darajada o'zlashtiriladi. Oddiy qilib aytganda, bolani yozishga o'rgatish harflarni shakllantirishdan boshlanmaydi, balki birinchi navbatda yozishdan oldingi barcha ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bolalar har kuni ko'p vaqtlarini bepul o'yinlarga sarflashlari kerak. Bu qo'pol motorli ko'nikmalarni rivojlantirishning eng yaxshi usuli. Yozishga tayyorlik (yozishdan oldin) nima uchun muhim? Oldindan yozish ko'nikmalari bolaning qalamni ravon va samarali ushlab turish va harakatlantirish qobiliyatini rivojlantirish va shuning uchun tushunarli yozish qobiliyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bu o'z-o'zini hurmat qilishning yomonlashishiga va akademik ko'rsatkichlarga olib kelishi mumkin. Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan uning yozuviga bog'liq.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lashga, so'zlarni qatorlar bo'ylab to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Daftari chiziqlari birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Yozuv tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o'xshash harflarning shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa, ularni qayta mashq qildirish kerak. Yozishni o'rgatishda daftardan to'g'ri foydalanishga alohida e'tibor berish zarur. Ikki chizikli daftardan bir chizikli daftarga o'tganda o'quvchilar oldiga qator vazifalar qo'yiladi. Qo'l va barmoqlarning kuchi: qo'llar va barmoqlar yordamida qarshilikka qarshi kuch ishlatish qobiliyati, qalamning boshqariladigan harakati

uchun kerakli mushak kuchini ta'minlaydi. Yozishni o'rganish uchun bolalar o'z tanalarini nazorat qilishlari va qo'l motorli ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Nozik vosita boshqaruvi yaxshi rivojlangan yalpi vosita boshqaruviga bog'liq. Bolalar to'g'ri o'tirishlari kerak, oyoqlari erga tekis bo'lib, qo'llari stolga to'g'ri burchak ostida bo'lishi kerak.

Ko'pgina bolalar maktabda qiladigan hamma narsaga ta'sir qiladigan va odatda o'z vazifalarini tugatmasliklarini bildiradigan bitta omil bilan kurashadilar. Stolda o'tirgan, charchagan yoki o'tirish va diqqatini jamlashda qiynalayotgan bolalar fizioterapevtga murojaat qilishlari lozim. Har bir bolaning orqa tekisligi, hatto o'ng qo'li, hatto chap qo'li bo'lishi kerak va stol yoki stolda to'g'ri turish yorug'likka, stol va stulning balandligiga bog'liq. Bolaning oyoqlari (yoki maxsus stend) bilan erga yetib borishi kerak, orqa tomoni stul yoki kresloning orqa tomonida turishi kerak va stol taxminan bolaning quyosh pleksusi darajasida bo'lishi kerak. Yozishga kirishishda chap yelka biroz ko'tarilib, oldinga suriladi, butun tanasi bir oz o'ngga egilib, boshi ham o'ng yelkaga egiladi. Shunday qilib, chap ishchi qo'l stol ustida yotardi, o'ng qo'li deyarli tanaga bosildi va daftarni qo'llab-quvvatladi. Qo'l ko'zlarini muvofiqlashtirish maqsada muvofiq hisoblanadi. Qo'l yozuvi kabi vazifani bajarishda qo'llarni boshqarish va yo'naltirish uchun ko'zlardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyati shakllanishi muhimdir. Bir qo'l bilan ikki qo'lni birgalikda ishlatish (masalan, dominant qo'l bilan qalamni ushlab turish va harakatlantirish, ikkinchi qo'l yozuv qog'ozini ushlab turishga yordam beradi). Yuqori tana kuchi muhim hisoblanadi. Bunda qalamni yaxshi boshqarish uchun qo'lning boshqariladigan harakatini ta'minlash uchun elka tomonidan ta'minlangan kuch va barqarorlik. Vizual idrokda miyaning harflar va raqamlar kabi ko'z bilan ko'riladigan vizual tasvirlarni talqin qilish va tushunish qobiliyati shakllanadi. Qo'llarning ustunligi topshiriqni bajarish uchun bitta (odatda bir xil) qo'lni doimiy ravishda ishlatish, bu nozik ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Yozuvda qo'l bo'linishi muhim hisoblanadi bunda manipulyatsiya uchun faqat bosh barmog'i, ko'rsatkich va o'rta barmoqni ishlatib, to'rtinchi va kichik barmoqni kaftga tiqilgan holda qoldirib, boshqa barmoqlarni barqarorlashtiradi, lekin ishtirok etmaydi. Noqulay qalam ushlagan hamda rang berish, chizish yoki yozish uchun qalamni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsa, ob'ektlarni manipulyatsiya qilish uchun bir nechta barmoqlarni emas, balki butun qo'llarini ishlatish istagini ko'rsatish muhim.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda har bir pedagog yoki ota-ona bolalarda yozishga o'rgatishda avvalo undan oldingi mayda motorli harakatlarni shakllantirishi maqsadga muvofiq. Savod chiqarish davrida ularni rag'batlantirish va qoidalarga amla qilishini nazorat qilib borishi lozim. Birinchi marta harf yozishga o'rgatishda ko'rgazmali vositalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali vositalarga "To'g'ri o'tir" plakati, bosma harf shakllari ifodalangan kartonlar, xattaxta, tarbiyalanuvchilar qo'lidan ushlab yozdirish

kabilar kiradi. Harfning yozma shaklini hosil qilishga o'rgatishda uning bosma shakli ko'rsatilib farqli jihatlari izohlanishi lozim hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida yaxshi tanlangan va mohirlik bilan foydalanilgan ko'rgazmali qurollar dars sifati va samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5198-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qaroriga 1-Ilova.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802- sonli qaroriga 1- Ilova.
4. T.G'afforova, X. G'ulomova. G. Eshturdiyeva. 1-sinfda savod o'rgatish darslari. - T. O'qituvchi, 1996.
5. T.G'afforova, E.Shodmonov, G. Eshturdiyeva. Alifbe (Savod).-T.: "O'qituvchi", 1999.

TA'LIM JARAYONIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI
BARQARORLASHTIRISHDA TARBIYANING AHAMIYATI

Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi

*International school of finance technology
and science instituti stajor-o'qituvchisi*

Elektron pochta: Xurshidyulchiboyev@gmail.com

Axmatova Sitorabonu Uktam qizi

ISFT 23-psb – 01 talabasi

Elektron pochta: sitoraaxmatova7977@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar, ularning ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar gavdalangan. Qolaversa, tarbiya jarayonida ijtimoiy muhitning o'rni, shaxslararo munosabatlarga kirishishda to'g'ri berilgan tarbiyaning ahamiyati aks ettirilgan

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, ijtimoiy muhit, shaxs, bola, shaxslararo munosabat.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

Tarbiya — bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishni o'rganishi hamda insonning hayotiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishidir. Tarbiya bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga egadir. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsning sifat va xossasi, ijtimoiy xulq-atvori va shakllari nazarda tutilsa, o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalar inobatga olinadi. [4, 496- b]

Tarbiya tasavvuf namoyondalarining qarashlarida ham eng ko'p e'tibor qaratilgan masalalardan biri hisoblanadi. Tasavvuf namoyondalaridan biri Pahlavon Mahmud qarashlari o'zining tarbiyaviylik ahamiyati bilan e'tiborga molik.

Mutafakkir o'z o'tmishdoshlari kabi do'stlikka va do'st tanlashga alohida ahamiyat berdi. "Zamonamizda, - degan edi u, - sodiq do'stni topmoq qiyin, shu sababli nomardlardan, nokaslardan vafo istama", Sodiq kishining iti bo'lishga ham roziman, chunki sadoqatsiz

kishidan it yaxshi» deb ta'kidlaydi. U samimiy, sof, beg'araz do'stlikni kuylaydi, biror maqsad bilan do'st tutinganlarni qattiq qoralaydi. O'zaro ahil bo'lib do'stona yashashga, do'stlikning qadriga yetishga chaqiradi. Haqiqiy do'st o'z do'stini eng og'ir damlarda ham tashlab ketmaydi, deb ta'kidlaydi: [1, 176-b]

— "Inson eng olijanob fazilatlar sohibidir", - deb yozadi Beruniy "Mineralogiya" nomli asarida - yaqin do'sti bor kishi chinakam baxtiyor kishidir. U do'st munosib hayot tarziga ega, yoqimli xususiyatlar sohibi bo'lishi lozim. Ana shunday chin do'st har bir kishida bitta bo'ladi. Bundan ortiq bo'lmaydi.

Ibn Sino asarlarida ham ta'lim jarayonida tarbiya berish masalasiga oid qarashlar o'rin olgan bo'lib, amal qilinishi zarur boigan didaktik qoidalar quyidagilardan iborat: [1, 220-b]

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- o'qitishda jamoa (ya'ni sinf) bo'lib o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash usullari va vositalari ham ifodalangan. Alloma asarlarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug'ullanib, namuna uslubidan foydalanish tavsiya etilgan. Tarbiya va ta'lim ota-ona hamda o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozimligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan muomalada bo'lishni, lekin bunda ham me'yoridan oshmaslik lozimligini uqtiradi. O'qituvchining talabchan bo'lishga undagani, ammo har ikkalasida ham ma'lum me'yorni bilish zarurligini uqtirgani ma'lumdir.

Yana bir buyuk allomalardan Masihiy Jamoa orasida o'zini tutishiga, ayniqsa, katta e'tibor bergan va buni har kimning aqli, bilim, tafakkuri darajasiga mos bo'lishini ta'kidlagan: "Aqli (kishi)ning yaxshi ishi hamma joyda o'rinli, ahmoqning ziyonli xatti-harakati hamisha xavflidir". [2, 64-b]

Yana bir buyuk mutafakkir Davoniy o'z asarlarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida tasvirlaydi. U inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan o'zaro munosabat jarayonida shakllanadi degan fikrni ilgari suradi. U ta'lim-tarbiya jarayoniga o'tkir psixolog, ya'ni ruhshunos olim sifatida yondoshib, bolaning shaxs sifatida shakllanish jarayonini chuqur tahlil qiladi. U bola yaxshi fazilatlarini ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin degan fikrni ilgari suradi. Bola qalbini naqsh solinadigan, suratlarni osonlikcha tushirish mumkin bo'lgan taxtaga o'xshatadi.

Ma'lumki, gaplashayotgan kishilar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga

bog'liq. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh — yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir», deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan.[3, 101-b]

Shaxs muloqotda bo'lmasdan faoliyat subyektini sifatida ham, individual inson sifatida ham to'laqonli rivojlana olmaydi. A.A. Bodalyev fikricha, hatto o'yin faoliyatida bola muloqotda bo'ladi. Ta'lim jarayonining asosida muloqotga o'rgatish masalasi turadi. Mehnat ta'limi jarayonida kishilar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar. [3, 25-b]

Muloqot juda kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega, u insonning dunyoqarashini kengaytirib psixikasini rivojlanishiga yordam beradi. Ya'ni barcha ruhiy jarayonlar muloqot orqali shakllanadi. Jamoa muhitini shakllantirishda ikkinchi yo'nalish jamoa a'zolarining ruhiy madaniyatini shakllantirishdir. Ruhiy madaniyatga o'rgatishni o'smirlik yoshidan boshlash muhim, chunki o'z shaxsi haqidagi axborotga qat'iy ehtiyoj xuddi shu davrda vujudga keladi. O'smirlikda o'zining «Men»i xususida ziddiyatli kechinmalar boshlanadi.[3, 25-b]


Tarbiya jarayonida doimiy va o'zgarmas maqsad qo'yilmaydi, chunki o'zgarmas maqsad har qanday jamiyatga ham mos bo'lavermaydi. Jamiyat tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi o'zgaradi. Tarbiyaning barcha tarixiy davrlar uchun xos bo'lgan ba'zi bir umumiy belgilari ham mavjud. Pedagogik g'oyalar va tarbiyaviy ishni rivojlantirishda muayyan darajadagi aloqa va ma'lum bir davomiylik mavjud. Jumladan, asrlar davomida dars maktabda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. Qator o'quv predmetlari mazmuni ma'lum darajada saqlanib qolayapti.[2, 497-b]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarbiya bugungi ommaviy madaniyat rivojlanib borayotgan davrda jamiyatning eng nozik nuqtasi hisoblanadi. Yoshlarni har tomonlama yetuk va tarbiyali qilib kamolga yetkazish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki kelajak yoshlarni qo'lida. Buning uchun birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga alohida e'tibor qaratish lozim hisoblanadi. Ma'lumki, shaxs kamolga etib borar ekan unga atrofdagi tashqi muhit, shaxslararo munosabatlar, ta'lim olayotgan muassasasi hamda oilaviy muhit tizimli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarda shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yilishiga hamda o'quv faoliyatini samarali tashkil qilinishiga olib keladi. Ayniqsa, jamoadagi shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan nizoli holatlarni oldinni olishga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Берковиц Л. Агрессия и агрессивное поведение. –Воронеж: “Научная книга”, 2004.

2. Бодалев А. А. О взаимосвязи общения и отношения. –Воронеж: “Научная книга”, 2004
3. Nishanova Z.T. va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. –Т.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2018.
4. Орлов Ю.М. Восхождение к индивидуальности. –М.: “Просвещение”, 1991



CHET EL ADABIYOTIDAGI QAHRAMONLAR ORQALI
O'QUVCHILARDA OG'ZAKI IFODA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Zaripova Maftuna Bahrom qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Sirtqi bo'lim
"Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lim" kafedrasida katta
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot chet el adabiyotidagi qahramonlarning o'quvchilarda og'zaki ifoda ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganadi. Adabiy qahramonlarning xarakterlari, motivlari va dialoglari orqali o'quvchilarning nutq madaniyati, fikrni ravon ifoda etish qobiliyatlari va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari shakllanadi. Tadqiqotda adabiy asarlarni o'qish, tahlil qilish va muhokama qilish jarayonida og'zaki ifoda ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, turli madaniy kontekstlarda qahramonlarning nutqqa ta'siri va ularning o'quv jarayonidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Аннотация: Данное исследование посвящено изучению роли литературных персонажей зарубежной литературы в развитии навыков устной речи у учащихся. Через характеры, мотивы и диалоги персонажей формируются культура речи, способность ясно выражать мысли и навыки социального общения. В работе анализируются эффективные методы развития устной речи в процессе чтения, анализа и обсуждения литературных произведений. Особое внимание уделяется влиянию персонажей на речь в различных культурных контекстах и их значению в образовательном процессе.

Abstract: This study explores the role of literary characters in foreign literature in developing students' oral expression skills. Through the characters' traits, motivations, and dialogues, students' speech culture, ability to express thoughts fluently, and social communication skills are formed. The research analyzes effective methods for developing oral expression skills through reading, analyzing, and discussing literary works. Special attention is given to the impact of characters on speech in various cultural contexts and their significance in the educational process.

Kalit so'zlar: Chet el adabiyoti, adabiy qahramonlar, og'zaki ifoda, nutq ko'nikmalari, muloqot qobiliyatlari, adabiy tahlil, madaniy kontekst.

Ключевые слова: Зарубежная литература, литературные персонажи, устная речь, навыки речи язык, культура речи, коммуникативные способности, литературный анализ, культурный контекст.

Keywords: Foreign literature, literary characters, oral expression, speech skills, communication abilities, literary analysis, cultural context.

Kirish

Zamonaviy ta'limda og'zaki ifoda ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega, chunki bu ko'nikmalar shaxsning ijtimoiy va professional muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chet el adabiyoti o'zining boy qahramonlari, murakkab syujetlari va chuqur dialoglari bilan o'quvchilarda nutqni rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Adabiy qahramonlar o'quvchilarga nafaqat adabiy asarlarni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlashni, balki o'z fikrlarini aniq va ta'sirchan ifoda etishni ham o'rgatadi. Ushbu tadqiqot chet el adabiyotidagi qahramonlarning og'zaki ifoda ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini o'rganishga qaratilgan bo'lib, adabiy muhokamalar, rol o'ynash va dialog tahlili kabi usullarning samaradorligini ko'rib chiqadi.

Asosiy qism

1. Adabiy qahramonlarning xususiyatlari va ularning nutqqa ta'siri

Chet el adabiyotidagi qahramonlarning psixologik chuqurligi va xatti-harakatlari o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va ta'sirchan ifoda etishga yordam beradi. Masalan, Uilyam Shekspirning "Hamlet" asaridagi Hamletning ichki ziddiyatlari va o'z-o'zini tahlil qilish jarayoni o'quvchilarga murakkab fikrlarni tahlil qilish va ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Hamletning monologlari, masalan, "Bo'lish yoki bo'lmaslik" nutqi, o'quvchilarga tilning falsafiy va poetik imkoniyatlarini kashf etishga yordam beradi.

Bundan tashqari, Jeyn Ostinning "G'urur va xurofot" romanidagi qahramonlar, xususan, Elizabet Bennet va janob Darsi, ijtimoiy muloqotda nutqning nozik jihatlarini o'rgatadi. Ularning o'zaro muloqotlari o'quvchilarga ijtimoiy sinflar, gender rollari va shaxsiy munosabatlarni muhokama qilishda nutqdan qanday foydalanishni ko'rsatadi.

2. Dialoglar va monologlarning o'rni

Adabiy asarlardagi dialoglar va monologlar o'quvchilarga turli nutq uslublarini o'rganish imkonini beradi. Masalan, Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asaridagi Santyago qahramonining ichki monologlari tabiat, hayot va insonning o'z-o'ziga ishonchi haqida chuqur fikrlarni ifoda etadi. Bu monologlar o'quvchilarga introspektiv nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Xuddi shunday, F. Skott Fitsjeraldning "Buyuk Getsbi" romanidagi qahramonlarning dialoglari Amerika orzusi, boylik va ijtimoiy sinflar haqidagi muhokamalarni jonlantiradi. O'quvchilar ushbu dialoglarni o'qish va muhokama qilish orqali o'zlarining fikrlash va ifoda etish usullarini rivojlantiradilar.

3. Adabiy muhokama va og'zaki ifoda

Sinfda adabiy asarlarni muhokama qilish o'quvchilarda nafaqat tahliliy fikrlash, balki o'z mulohazalarini boshqalarga yetkazish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Masalan, Charlz Dikkensning "Ikki shahar hikoyasi" asarini muhokama qilish o'quvchilarni inqilob, adolat va fidoiylik kabi mavzularni o'rganishga undaydi. Bu jarayonda o'quvchilar o'z fikrlarini boshqalar oldida ifoda etishni o'rganadilar.

Bundan tashqari, adabiy muhokamalar turli madaniy kontekstlarni tushunishga yordam beradi. Masalan, Xalid Husayning "Ming muhtasham quyosh" romani Afg'oniston madaniyati va gender muammolarini o'rganishga imkon beradi, bu esa o'quvchilarni boshqa madaniyatlar haqida nutq orqali mulohaza yuritishga undaydi.

4. Rol o'ynash va nutqni taqlid qilish

Rol o'ynash usuli o'quvchilarga adabiy qahramonlarning nutq uslublarini taqlid qilish orqali og'zaki ifoda ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, o'quvchilar Shekspirning "Romeo va Juletta" asaridagi sevgi dialoglarini sahnalashtirish orqali hissiy va poetik nutqni o'rganadilar. Bu usul o'quvchilarda o'ziga ishonch va nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Muhokama

Adabiy qahramonlar orqali og'zaki ifoda ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday usullar eng samarali? Tadqiqotda quyidagi usullar muhokama qilinadi:

1. **Adabiy muhokamalar:** O'quvchilarning o'z fikrlarini guruh oldida ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi.
2. **Rol o'ynash:** Qahramonlarning nutq uslublarini taqlid qilish orqali nutqning hissiy va kontekstual jihatlarini o'rganishga yordam beradi.
3. **Dialog tahlili:** Adabiy dialoglarni tahlil qilish orqali nutqning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini tushunish.
4. **Qiyosiy tahlil:** Turli madaniyatlar va tillarga xos qahramonlarning nutqqa ta'sirini solishtirish.

Muhokamada shuningdek, turli madaniy kontekstlardagi qahramonlarning o'quvchilarning nutqiga ta'siri solishtiriladi. Masalan, G'arb adabiyotidagi individualistik qahramonlar (masalan, Hamlet) va Sharq adabiyotidagi kollektivistik qahramonlar (masalan, "Alpomish" dostonidagi Alpomish) o'quvchilarning nutqiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Chet el adabiyotidagi qahramonlar og'zaki ifoda ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Adabiy asarlarni o'qish, tahlil qilish va muhokama qilish orqali o'quvchilar nutq madaniyatini oshiradi, fikrlarini aniq ifoda etishni o'rganadi va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilarga quyidagi takliflar beriladi:

1. Adabiy muhokamalarni ko'proq joriy qilish va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash.
2. Rol o'ynash va dialog sahnalashtirish usullarini darslarda qo'llash.
3. Turli madaniy kontekstlardan adabiy asarlarni tanlash orqali o'quvchilarni global fikrlashga yo'naltirish.
4. Adabiy qahramonlarning nutq uslublarini tahlil qilishga alohida e'tibor berish.

Kelajakda ushbu yo'nalishda ko'proq amaliy tadqiqotlar o'tkazish, ayniqsa, turli yosh guruhlari va madaniy kontekstlarda adabiy qahramonlarning ta'sirini o'rganish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shekspir, V. (2010). Hamlet. Tashkent: Yangi Asr Avlodi.
2. Ostin, J. (2015). G'urur va xurofot. Tashkent: Adabiyot.
3. Xeminguey, E. (2018). Chol va dengiz. Tashkent: Nihol.
4. Fitsjerald, F. S. (2017). Buyuk Getsbi. Tashkent: G'afur G'ulom.
5. Dikens, Ch. (2019). Ikki shahar hikoyasi. Tashkent: Sharq.
6. Husayni, X. (2020). Ming muhtasham quyosh. Tashkent: Yangi Kitob.
7. Smith, J. (2020). The Role of Literary Characters in Developing Oral Skills. Journal of Language Education, 45(3), 123-135.
8. Brown, L. (2021). Literary Analysis and Communication Skills. Educational Studies, 50(4), 200-215.
9. Rahimov, A. (2022). Adabiyot va nutq madaniyati. Tashkent: O'qituvchi.
10. Johnson, M. (2023). Cross-Cultural Literary Characters and Their Impact on Speech. International Journal of Literature and Education, 12(2), 89-102.

KASHTACHILIK SAN'ATINING TURLARI VA ULARNING MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI

Allayorova Dildora Sobir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada o'zbek xalqining boy madaniy merosiga mansub bo'lgan kashtachilik san'ati, uning turlari va hududiy o'ziga xosliklari o'rganiladi. Yurtimizning turli mintaqalarida kashtachilik uslublari, ranglar uyg'unligi, naqshlar va tikuv texnikalari bir-biridan farqlanadi. Bu farqlar mahalliy madaniyat, iqlim sharoiti, tarixiy an'ana va xalq urf-odatlarini bilan bog'liqdir. Tadqiqotda bu san'at turining estetik, ijtimoiy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kashtachilik, xalq amaliy san'ati, mintaqaviy uslub, naqsh, bezak, milliy meros, Buxoro kashtasi, Farg'ona uslubi, Samarqand tikuvi, xalq ijodi.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllantirib kelgan milliy an'analari orasida kashtachilik san'ati alohida o'rin tutadi. Bu san'at turi xalqning estetik qarashlari, dunyoqarashi va didi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mato ustida tikilgan nafis naqshlar orqali o'z ifodasini topgan. O'zbek ayollari tomonidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ushbu san'at turida har bir mintaqaning o'ziga xos uslubi, rang tanlovi va naqsh kompozitsiyalari mavjud. Masalan, Buxorodagi "gulduzi" va "iroqi", Farg'onadagi yorqin va jonli naqshlar, Samarqand va Surxondaryodagi klassik va ramziy kompozitsiyalar xalqimizning badiiy didi, tarixi va qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu maqolada ana shu xususiyatlar batafsil o'rganiladi. Kashtachilik - mato yoki boshqa materiallarni igna ip orqali bezash san'ati yoki qo'l san'ati hisoblanadi. Kashtachilik san'ati asrlar davomida rivojlanib, keng miyosda matolarga bezak berish maqsadida qo'llanilgan. Kashtachilikning kelib chiqishi Zamonaviy Odam davriga yoki miloddan avvalgi 30 000 yillikka to'g'ri keladi. Yaqinda o'tkazilgan arxeologik topilmalarni o'rganish davomida qo'lda tikilgan va bezatilgan kiyim, etik va bosh kiyimlarning toshga aylangan qoldiqlari topildi .

Kashtachilik va boshqa ko'plab matolarga bezak berish bilan bog'liq tikuvchilik san'ati Aynan biz yashayotgan hududlarga va Yaqin Sharqda paydo bo'lganligini ko'plab arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan isbotlangan. Ibtidoiy insoniyatning rivojlanishi hayvonlar terisini birlashtirish uchun ishlatiladigan choklarni bezak uchun ham ishlatilishi mumkinligini angladilar. Turli qadimiy buyumlarda aholi tomonidan tasvirlangan tarixiy yodgorliklarda,

haykallar, rasmlar va vazalarda ip bilan bezak berib tikilgan kiyim kiygan odamlar tasvirlangan.

Kashtachilikning tarixiy rivojlanish bosqichida diniy buyumlarni bezash maqsadida mayda shakldagi marvaridlar kiyimlarga tikilishi keng yoyildi. Shu bilan birga kiyim-kechaklarga munchoqlar tikilishi ham rivojlanib bordi. Miloddan avvalgi 1500 yilga kelib kashtachilik dunyoning boshqa hududlari kabi O'rta Osiyo hududida ham rivojlanib bordi. Aynan o'zbek milliy kashtachilik san'atida 1700-yillarda kiyimlar ip orqali hosil qilingan naqsh va munchoq kashtachiligi mashhurlikka erishdi. Kashtachilik inson liboslari bilan bir vaqtda uy jihozlari hamda boshqa ko'plab buyumlarni bezatilishi keng tarqala boshladi. O'zbek milliy kashtachilik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan biri hisoblanib, u millatning oz turmushini gozal qilish maqsadi natijasida shakllangan. Milliy kiyimlar va uy ro'zg'or buyumlarini bezashda kashtachilik san'ati qadimdan qollanilib kelingan. Milliy kashtachilik san'atimizning o'ziga hos go'zalligi va jiloli naqshlar bilan boyitilganligi bois bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki horijiy mamlakatlarda ham shuhrat qozonib kelmoqda. Ozbek xalqining qo'li gul kashtachilari qollari bilan tikilgan kirpich, sozana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Hindiston hamda Rossiya Federatsiyasi kabi mamlakatlarning san'at muzeylarida doimiy yuqori ahamiyatga ega eksponat sifatida ko'rilib kelinmoqda.

XIV-XV asrlarga oid manbaalar va miniatyuralarda kashtachilik na'munalarini keng miqyosda uchratishimiz mumkin. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod "Zafarnoma" qo'lyozmasiga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan.

Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi o'zbek kashtado'zlarining katta san'atidan dalolat beradi. Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand Kashtado'zlik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok bilan, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar Kashtado'zlik an'analariga, mahsulotning turlariga ta'sir ko'rsatgan Tadqiqotlarimiz davomida milliy kashtachiligimizning qadimiyligini Markaziy Osiyo davlatlari hududida o'tkazilgan arxeologik topilmalar va yozma manbalarining mavjud dalillaridan foydalanilgan holda olib borildi. Kashtachilik bo'yicha olingan tarixiy manbaalarni tahlili asosida shuni ta'kidlash mumkinki, aynan XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning o'ziga hos rivojlanganligini qayd etishimiz mumkin. XIX asrda kashta tikish mashinasining kashf etilishi sohada yangi san'at asarlarini

ko'payishiga hamda turlarini ortishiga sabab bo'ldi. Qolaversa kashta ranglari va naqshlar turlarining yuqori simmetrik o'lchamlarda amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi. Shunday bo'lishiga qaramay, xalqimiz orasida kashtachilikning ko'pgina turlarini aynan qo'l bilan tikish an'anasi saqlanib keng miqyosdagi xunarmandchilik tarzida bugungi kungacha rivojlanib kelmoqda . Qadimdan o'rta osiyo xalqlarining yashash tarzi, madaniyati va marosimlari kabi kiyimlari ham bir biriga juda yaqin bo'lgan. Jumladan tojik kashtachiligida chiroyli gullar, doirasimon, gul shoxchalari, bulbul, aylanma yo'lli naqshlardan ko'p foydalanilgani holda, o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'proq aks ettiriladi. Rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Qozoq va qirg'iz kashtachiligi bir-biriga yaqinroq bo'lib, ularda gul, geometrik shakllar bilan bir qatorda ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar turli ranglarda tasvirlanadi. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, tojik xalqida ham qadimiy an'analarga ko'ra, tojik qizlari ham turmushga uzatilayotganda kashtachilik buyumlari ularga sep tarzida berilgan. Kelinchakning kelinlik liboslari ham boshidagi ro'moli, paranjisi, ko'ylagi, nimchasi hatto oyoq kiyimlari ham chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Kelinchakning uyidagi ko'rpa-to'shak, ko'rpa ustiga tashlanadigan mato (ro'yjo), sholcha, gilam, supra va boshqa ro'zg'or buyumlari ham aynanyuqoridagidek naqshu nigor bilan bezatilgan. Kelinchakni uzatiladigan uyga olib boradigan ot va arava ham xuddi shunday yasatilgan . Eng ajoyibi shundaki, bo'lajak kelinchaklar mana shu seplaridagi har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim bo'lgan. To'y kuni kuyovning uyiga ilib qo'yilgan buyumlarga qarab, kelinning qanchalik chevar ekanligiga baho berishgan. Shuning uchun qizlarga 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatishgan. Ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlashgan. Chevar kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra, go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, shunchalik qimmatga baholangan.

Kashtachilik - kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qadimiy soxalaridan biri bo'lib kelgan. Arxeologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha xalqlarda qadiymiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muxit bilan bog'liq xolda xar bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb xunar turlari bilan birga, ularni tasiri bilan rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtachilikni paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarni yuzaga kelishi bilan bog'liq. Davrlar mobaynida toshlardan suyaklardan bigizlarga metal begizlardan o'tish bilan, to'qish, shuningdek mato to'qish bo'yash va boshqa ishlar bilan bog'liq . Hozirgi kunda mamlakatimizda va undan tashqarida xalqimizning boy va betakror badiiy boyligiga va milliy qadriyatlariga, qolaversa o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy hayotida, hozirgi madaniyatning rivojlanishi uchun asos bo'lgan. Tanlangan mavzuning muhimligi shundan

iboratki, O'zbekistonda juda qadimdan rivoj topgan kashtachilik san'atida hunar sirlarini mukammal o'zlashtirib, bu hunarni san'at darajasiga ko'tarilganligini quyidagi rasmlarda ham ko'rishimiz mumkun.

VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoga islom madaniyatining kirib kelishi, badiiy bezak va naqqoshlik san'atining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mahobatli rasmlardagi jonli mavjudotlar o'rnini tabiat tasvirlari, o'simliksimon va geometrik elementlar ishtirokidagi naqsh namunalari egalladi. Arab yozuvlari o'zlashtirilib, bezakli (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Naqqoshlikda turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy falsafiy ma'nolari kengroq ifodalana boshlandi: Yuqorida keltirilgan kashtachilik shakllari bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlash bilan birga turli zamonaviy ko'rinishda ifodalana boshlandi. Anan yuqorida keltirilgan shakl va ranglarning zamonaviy o'zbek milliy kashtachiligida aks ettirish borasida dizayn yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar fikrlari so'rovnoma tarzda o'rganildi. So'rovnomada 212 nafar sohada tahsil oluvchi talabalar fikrlari o'rganildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra kvadrat, Quyosh, zirk guli, olma, sher va Humo qushi kabi shakllarini kashtaning elementlari sifatida ifodalash zarurati mavjudligini hamda tarixiy an'analarimiz bilan bog'lanishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Kashtachilikda ranglardan foydalanishda zamonaviy rangshunoslik natijalari bilan bir vaqtda yashil va havorangni markaziy rang sifatida saqlab qolish lozimligi ta'kidlandi. Talabalarimiz tomonidan 'Milliy kashtachiligimiz Sizing tassavvuringizda' nomli san'at asarlaridan keltirilgan na'munalar keltirilgan.

Hulosa Kashtachilik san'ati O'zbekistonning barcha hududlarida o'ziga xos shakl va mazmun kasb etgan bo'lib, u xalq ijodining yorqin namunasidir. Buxoro kashtachiligida ranglar uyg'unligi va marjonday terilgan silliq tikuvlar ko'zga tashlansa, Farg'ona vodiysining kashtalarida jonli, hayotiy manzaralar va quvnoq ranglar ustuvorlik qiladi. Samarqandda esa geometrik va ramziy naqshlar ko'proq uchrab, ularning har biri ma'naviy va falsafiy mazmun bilan boyitilgan. Qashqadaryo va Surxondaryo mintaqalarida esa kashtachilik an'anaviy diniy va maishiy mavzular bilan boyitilib, o'ziga xos uslublar yaratilgan. Kashtachilik nafaqat bezak san'ati, balki ayollarning ijodiy tafakkuri, mehnatsevarligi va milliy merosni saqlashdagi faol ishtirokini namoyon etadi. Zamonaviy davrda bu san'at turi dizayn, moda va xalqaro amaliy san'at ko'rgazmalarida o'z o'rnini topmoqda. Shu bois, kashtachilik san'atini nafaqat o'rganish, balki uni yosh avlodga o'rgatish, asrash va targ'ib qilish milliy o'zligimizni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu san'at turining mintaqaviy xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali o'zbek xalqining madaniy boyligini yanada kengroq ochib berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Kamalova S.R , Babaxanova X.A, Komilova S.D. OzTTITI Toshkent filiali direktori, k.f.n "Rangshunoslik injiniringi" fani bo'yicha maruzalar to'plami
2. N.S. Gaipova, M.A. G'afurova, Q.M. Abdullayeva. "Tikuv buyumlarini loyihalash, modellash, badiiy bezash". T.: Cholponnomidagi nashriyot-matbaaijodiy uyi. 2006y.
3. T.A.Ochilov, N.G.Abbasova, F.L.Abdullina, Q.I.Abdulniyozov. "Gazlamashunoslik". - T.: Cho Ipon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010 y.
4. K.M. G'ulomov, S.S.Bulatov Sharqona usta shogird odobi. - O'zROO"MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byuletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000. 120 bet.
5. S.S.Bulatov va M. Ashirov Amaliy san'at atamalar lug'ati. - Toshkent : Ensiklopediya bosh red., 1991. 86 bet.
6. K.M. G'ulomov Amaliy san'at. - T: Iqtisod -moliya, 2008. 90 bet

ZAMONAVIY JURNALISTIKANING EKOLOGIK XABARLARNI
YORITISHDAGI KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI

Abdazova A'loxon Rivojiddin qizi

Xalqaro Jurnalistika fakulteti, IV bosqich talabasi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: gg0786320@gmail.com

Telefon: +998908170620

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jurnalistikaning ekologik muammolarni yoritishdagi kommunikativ strategiyalari tahlil qilinadi. Media vositalari ekologik inqiroz, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va atrof-muhit ifloslanishi kabi global muammolarni ommaga yetkazishda qanday kommunikativ yondashuvlardan foydalanishi ochib beriladi. Tahlil davomida O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar media xabarlarida qo'llanilgan strategiyalar, jumladan, faktlarga asoslangan xabar berish, hissiy ta'sir, infografikalar, shaxsiy voqealar orqali uyg'otish, ijtimoiy tarmoqlardagi aks-sado kabi usullar solishtiriladi. Maqola jurnalistlarning ekologik savodxonlik darajasi va ularning axborot berishdagi mas'uliyatiga e'tibor qaratadi. Xulosa sifatida, ekologik xabarlarda samarali kommunikativ yondashuvlar auditoriyani faollashtirish va ekologik ongni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ekologik jurnalistika, kommunikativ strategiya, media xabari, ijtimoiy ong, axborot sifati, jurnalist mahorati, infodiskurs.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb va global muammolardan biri hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv resurslarining tanqisligi kabi muammolar nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy oqibatlarga ham olib kelmoqda. Ushbu murakkab holatlarning mohiyatini keng ommaga yetkazish, ularning ahamiyatini tushuntirish va e'tibor markaziga olib chiqishda ommaviy axborot vositalarining roli beqiyosdir. Ayniqsa, zamonaviy jurnalistikaning kommunikativ strategiyalari orqali ekologik xabarlarning qanday yoritilishi bugungi ilmiy va amaliy muhokamalarning markazida turibdi. Jurnalistikaning ekologik masalalarni yoritishdagi asosiy vazifalaridan biri – aholining ekologik ongini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va barqaror rivojlanish g'oyalarini keng targ'ib qilishdan iborat¹. Shu bois, ekologik jurnalistika

¹ Хабибуллаева, М.М. Экологик журналистиканинг асосий вазифалари. – Тошкент: ТДЮУ нашри, 2020. – 132 б.

hozirda ixtisoslashgan va strategik yondashuvni talab qiladigan yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Kompaniya xabarlari, reportajlar, intervyular, analitik maqolalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik mavzularning keng yoritilishi aholining ekologik muammolarga nisbatan befarqligini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy jurnalistika ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun turli kommunikativ strategiyalardan foydalanadi. Ular orasida faktlarga asoslangan jurnalistika, shaxsiy hikoya asosidagi ta'sirchan yondashuv, vizual materiallar (infografika, video), ijtimoiy tarmoqlarda "viral" usullar orqali axborot tarqatish va auditoriya bilan interaktiv muloqot o'rnatish kabi usullar alohida o'rin tutadi. Har bir kommunikativ strategiyaning o'ziga xos afzalliklari bo'lib, ularning to'g'ri qo'llanilishi jurnalistikaning axborot berishdagi samaradorligini belgilaydi. Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida ekologik xabarlarda qo'llanilayotgan kommunikativ strategiyalar tahlil qilinadi.

Shuningdek, jurnalistlarning ekologik savodxonligi, axborotni tanlash va berishdagi mas'uliyati, manba ishonchliligi va ijtimoiy ta'sir kuchi kabi omillar ham muhokama etiladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, unda nafaqat nazariy yondashuv, balki amaliy misollar asosida jurnalistikaning ekologik xabarlardagi strategik roli yoritiladi. Demak, jurnalistikaning ekologik muammolarni yoritishda qanday kommunikativ vositalar va strategiyalardan foydalanayotgani, ularning samaradorligi va ijtimoiy aks-sadosi tahlil qilinadi². Bu esa ekologik jurnalistika sohasi rivojiga ilmiy yondashuv bilan yondashish imkonini beradi va ekologik muammolar yechimida media vositalarining faolligini kuchaytiradi. Zamonaviy jurnalistikaning ekologik muammolarni yoritishdagi roli tobora ortib bormoqda. Ekologik jurnalistikaning samaradorligi jurnalistning mavzuga bo'lgan yondashuvi, foydalanilgan kommunikativ strategiyalar va auditoriyaga yetkazilgan axborotning sifati bilan belgilanadi³. Ayniqsa, global miqyosdagi ekologik inqirozlar sharoitida jurnalistlar ekologik ongini shakllantirish, muammoning sabab va oqibatlarini ochib berish, davlat va jamoatchilik e'tiborini muhim masalalarga qaratishda vositachi sifatida faoliyat yuritishlari zarur.

Bugungi axborot maydonida keng qo'llanilayotgan kommunikativ strategiyalar quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

² McCombs, M. Setting the Agenda: The Mass Media and Public Opinion. – UK: Polity Press, 2004. – p. 56–78.

³ Андреева, Г.М. Социальная психология в медиа-дискурсе. – Москва: Аспект Пресс, 2019. – 214 с.



Faktlarga asoslangan axborot berish (informativ strategiya)

• Bu strategiya ilmiy dalillar, statistik ma'lumotlar, ekspert fikrlariga asoslanadi. Jurnalist voqeani hissiy bezaklarsiz, obyektiv tarzda yoritadi. Bu yondashuv ekologik muammoning dolzarbligini isbotlashda va rasmiy idoralar e'tiborini jalb etishda foydalidir.

Emotiv-hissiy yondashuv (emotiv strategiya)

• Bu uslubda muallif auditoriya hissiyotlariga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi. Tabiiy ofatlar, jonzotlar hayoti yoki oddiy insonlarning ekologik muammolardan aziyat chekkan voqealari orqali o'quvchining befarqligini yo'qotishga intiladi. Bu uslub ekologik masalaga hamdardlik uyg'otishda samarali hisoblanadi.

Vizual kommunikatsiya strategiyasi

• Infografika, fotosuratlar, interaktiv xaritalar va videoreportajlar ekologik mavzularni tushunarli, ishonarli va esda qolarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan materiallar vizual yondashuvning qudratini namoyon etadi.

Shaxsiy hikoya asosidagi strategiya (narrativ yondashuv)

• Bu uslubda ekologik muammolar oddiy insonlar hayoti orqali ochib beriladi. Misol uchun, suv tanqisligidan aziyat chekayotgan fermer, daraxt kesilishiga qarshi kurashayotgan faollar, plastik ifloslanishdan zarar ko'rgan baliqchilarning hikoyasi orqali o'quvchi muammoni shaxsiy darajada his qilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardagi kommunikativ strategiyalar

• Bugungi kunda ekologik mavzular ko'pincha TikTok, Instagram, Telegram va YouTube kabi platformalar orqali yoritiladi. Bu yerda qisqa video, "reels", "storis" va "hashtag"lar orqali keng auditoriyaga tezkor va ta'sirchan axborot yetkazish mumkin. Bloggerlar va eko-faollar tomonidan ishlab chiqilgan kontent ham jurnalistik nutqning bir shakliga aylanmoqda.

O'zbekiston jurnalistikasida ham so'nggi yillarda ekologik mavzular kengroq yoritilmoqda. Masalan, *Kun.uz*, *Daryo.uz*, *Gazeta.uz* kabi nufuzli internet nashrlarida suv muammosi, havoning ifloslanishi, chiqindilar muammosi kabi mavzularda tahliliy va ijtimoiy materiallar muntazam chop etilmoqda. Bu xabarlar ko'pincha faktlarga asoslangan, rasmiy izohlar bilan boyitilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda hissiy yondashuv va vizual materiallardan foydalanish yetarli emas. Xorijiy tajribada esa bunday usullar juda keng qo'llaniladi – ayniqsa *BBC*, *The Guardian*, *Deutsche Welle* singari media subyektlar ekologik muammolarni turli burchaklardan ko'rsatishga intiladi⁴. Demak, ekologik mavzularni yoritishda strategik yondashuv tanlovi jurnalist mahoratini aks ettiradi.

O'quvchini faollikka undovchi, uni ekologik ongli fuqaro sifatida shakllantiruvchi kommunikativ vositalar – zamonaviy jurnalistikaning eng muhim quroli hisoblanadi. Jurnalistikaning ekologik masalalarni yoritishdagi kommunikativ strategiyalari nafaqat

⁴ Boykoff, M.T. Who Speaks for the Climate? Making Sense of Media Reporting on Climate Change. – Cambridge, CUP, 2011. – p. 99–118.

axborot yetkazish, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, qaror qabul qiluvchilarga ta'sir o'tkazish, yoshlar orasida ekologik savodxonlikni oshirish kabi ko'p qirrali funksiyalarni bajaradi. Shu bois, jurnalistlar nafaqat matnli xabarlar, balki multimedia formatdagi (video, podkast, interaktiv grafikalar) materiallar orqali auditoriyaga faol ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega. Ayrim holatlarda esa ekologik xabarlar o'quvchida charchoq yoki "ekologik befarqlik" holatini keltirib chiqarishi mumkin⁵. Bu hodisani yengish uchun zamonaviy jurnalistlar "yechimga yo'naltirilgan jurnalistika" (solution journalism) strategiyasidan foydalanmoqdalar.

Ya'ni, muammoni yoritish bilan birga, mavjud yoki potentsial echimlar, innovatsion tashabbuslar, mahalliy va xalqaro amaliyotlar haqida ham ma'lumot berish orqali umid va harakat ruhini mustahkamlashadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolarni faqat salbiy tusda yoritish o'rniga, muammoni yechish yo'llarini ko'rsatgan jurnalistik materiallar ko'proq ijtimoiy aks-sado uyg'otadi va fuqarolik faolligini rag'batlantiradi⁶. O'zbekiston tajribasida bu yondashuv hali yetarlicha keng qo'llanilmayapti, biroq ayrim tashabbuskor jurnalistlar va blogerlar individual darajada ushbu strategiyani tatbiq etmoqda. Xalqaro miqyosda esa ekologik jurnalistlar birlashmalari (masalan, *Society of Environmental Journalists*, *Climate Journalism Network*) doirasida doimiy treninglar, malaka oshirish kurslari tashkil etilib, jurnalistlar zamonaviy kommunikatsiya vositalari bilan ishlash bo'yicha doimiy yangilanmoqda. Bu esa ekologik xabarlarining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolarni ommaga yetkazishda jurnalistikaning kommunikativ strategiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy jurnalistlar tomonidan qo'llanilayotgan informativ, emotiv, vizual, narrativ va interaktiv strategiyalar ekologik xabarlarni yanada ta'sirchan, tushunarli va esda qolarli qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yechimga yo'naltirilgan jurnalistika yondashuvi orqali muammoning faqat salbiy jihatlari emas, balki uni hal etish yo'llari ham ochib beriladi. Bu esa ijtimoiy faollikni oshirish, ekologik ongni shakllantirish va mas'uliyatli qaror qabul qilishga undaydi.

O'zbekiston jurnalistik amaliyotida ekologik mavzularni yoritish bo'yicha muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, kommunikativ strategiyalarni tizimli va innovatsion tarzda tatbiq etish zarur. Xususan, jurnalistlar ekologik savodxonlik darajasini oshirib, xalqaro tajribalardan foydalangan holda, jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirishga ko'proq hissa qo'shishlari mumkin.

⁵ Shoabdurahmonov, A.S. Ommaviy axborot vositalari nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Universitet, 2018. – 178 b.

⁶ Hansen, A. Environment, Media and Communication. – New York: Routledge, 2015. – p. 67–94.

Shu bois, ekologik jurnalistikani yanada takomillashtirish uchun jurnalistlarni muntazam malaka oshirish, yangi media vositalaridan foydalanishni o'rganish hamda ommaviy axborot vositalarining strategik rolini kuchaytirish muhimdir. Faqat axborot emas, balki ilhom, anglash va harakatga chaqiriq ham jurnalistikaning zamonaviy vazifasiga aylanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boykoff M.T. Who Speaks for the Climate? Making Sense of Media Reporting on Climate Change. – Cambridge: CUP, 2011. – p. 99–118.
2. Hansen A. Environment, Media and Communication. – New York: Routledge, 2015. – p. 67–94.
3. McCombs M. Setting the Agenda: The Mass Media and Public Opinion. – UK: Polity Press, 2004. – p. 56–78.
4. Shoabdurahmonov A.S. Ommaviy axborot vositalari nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Universitet, 2018. – 178 b.
5. Андреева Г.М. Социальная психология в медиа-дискурсе. – Москва: Аспект Пресс, 2019. – 214 с.
6. Хабибуллаева М.М. Экологик журналистиканинг асосий вазифалари. – Тошкент: ТДЮУ нашри, 2020. – 132 б.

A COMPARATIVE STUDY OF TRADITIONAL AND INTEGRATIVE
APPROACHES IN EFL TEACHER TRAINING

Ashurova Zulaykho Kholdaraliyeva

Independent researcher

E-mail: prettyzulayho86@yahoo.com

Phone: +998979890086

Annotation. This article presents a comparative analysis of traditional and integrative approaches in English as a Foreign Language (EFL) teacher training, with a particular focus on the development of oral communication competence. Traditional methods, often characterized by grammar-translation techniques and lecture-based instruction, are contrasted with integrative models that emphasize communicative competence, task-based learning, and interdisciplinary content. Drawing on qualitative and quantitative data from a teacher education program, the study evaluates outcomes in areas such as fluency, classroom interaction strategies, and learner autonomy. Findings indicate that integrative approaches significantly outperform traditional methods in preparing pre-service teachers for real-life communicative challenges in the classroom. Additionally, the integrative approach enhances trainee motivation, reflective practice, and adaptability to diverse learning environments. The study concludes with practical implications for curriculum reform in teacher training institutions and recommends a hybrid model that incorporates the strengths of both approaches while addressing the limitations of traditional pedagogy.

Keywords: EFL, teacher training, traditional method, integrative approach, communicative competence, task-based learning, curriculum reform.

Introduction. The preparation of qualified English as a Foreign Language (EFL) teachers is a critical aspect of modern educational policy worldwide. As English continues to serve as a global lingua franca, the demands placed on future teachers extend far beyond grammatical accuracy or textbook knowledge they are expected to foster communicative competence, intercultural awareness, and adaptive teaching strategies. However, teacher education programs often differ in how they address these evolving needs. Two dominant paradigms traditional and integrative approaches shape the methodology and content of EFL teacher training programs. Traditional approaches tend to emphasize grammar instruction, translation exercises, and passive learning through lectures.



While these methods offer structural knowledge and theoretical foundations, they often fail to prepare trainees for interactive, learner-centered teaching environments¹. In contrast, integrative approaches focus on blending various methodologies, including task-based learning, communicative activities, and content integration. These models aim to mirror the real-life communicative demands of teaching and prioritize active learning, reflection, and collaboration. Despite their differences, both approaches continue to coexist in global teacher education systems. Yet, few empirical studies have directly compared their effectiveness in developing key teaching competencies especially oral communication skills, classroom management in English, and pedagogical decision-making². This article seeks to fill that gap by conducting a comparative analysis of the outcomes associated with traditional and integrative training models. Based on observational data, interviews, and performance assessments of pre-service teachers, the study evaluates which approach more effectively supports the development of teaching readiness in a communicative classroom context.

Ultimately, the article contributes to the ongoing debate on teacher education reform by offering evidence-based insights. It aims to inform curriculum designers, teacher educators, and policymakers seeking to modernize and improve EFL teacher training in line with the communicative realities of today's classrooms. The distinction between traditional and integrative approaches in EFL teacher training lies not only in instructional technique but also in underlying philosophy. Traditional methods prioritize a transmission model of education, where knowledge is delivered from teacher to student in a largely unidirectional fashion. This approach typically emphasizes grammatical rules, vocabulary memorization, and text translation. Although it builds a solid foundation of linguistic knowledge, it often lacks opportunities for active language use, especially in oral communication.

By contrast, integrative approaches incorporate communicative, experiential, and reflective dimensions³. Rooted in Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), and Content and Language Integrated Learning (CLIL), these models encourage student engagement through authentic tasks, collaborative activities, and context-rich language use. For instance, future teachers might engage in peer teaching, debate current events, or create lesson plans aligned with both language objectives and content themes. To explore the impact of each approach, a comparative study was conducted at two teacher training institutes. One employed a traditionally structured curriculum focused on grammar, methodology lectures, and textbook analysis. The other adopted an integrative

¹ Littlewood W. *Communicative Language Teaching: An Introduction*. – UK: Cambridge University Press, 1981. – 122 p.

² Ellis R. *The Study of Second Language Acquisition*. – UK: Oxford University Press, 1994. – 824 p.

³ Freeman D. *Doing Teacher Research: From Inquiry to Understanding*. – USA: Heinle ELT, 1998. – 256 p.



model featuring project-based work, reflective journals, and simulated classroom practice. Both groups were assessed using oral proficiency tests, peer evaluations, and teaching practicum performance⁴. The results revealed notable contrasts. Trainees in the integrative program demonstrated significantly higher levels of fluency, confidence, and classroom interaction strategies during microteaching sessions. They also showed stronger abilities in adapting lesson content based on student needs.

Meanwhile, those trained in traditional settings exhibited stronger control of linguistic accuracy but were less adept at spontaneous communication or managing student-centered speaking tasks. Furthermore, surveys and interviews highlighted higher motivation and engagement levels among students trained through the integrative model⁵. These participants reported feeling more prepared for real classroom challenges, particularly in managing communicative activities and fostering student participation. Moreover, while traditional methods offer structural clarity, integrative approaches provide a more holistic preparation for the dynamic communicative environment of modern EFL classrooms. An ideal training program may benefit from a hybrid design that retains the rigor of traditional instruction while incorporating the contextual and interactive strengths of integrative pedagogy.

Table. Comparison of traditional vs. integrative approaches in EFL teacher training.

Criteria	Traditional Approach	Integrative Approach
<i>Instructional style</i>	Teacher-centered, lecture-based	Learner-centered, interactive
<i>Focus of training</i>	Grammar, translation, theoretical knowledge	Communicative competence, practical teaching skills
<i>Common activities</i>	Drills, note-taking, rule explanation	Microteaching, role-play, task-based projects
<i>Assessment methods</i>	Written exams, grammar tests	Oral presentations, teaching simulations, portfolios
<i>Language use in class</i>	Limited, mostly receptive (reading, listening)	Active, productive (speaking, presenting, interacting)

⁴ Hall G. Exploring English Language Teaching: Language in Action. – UK: Routledge, 2011. – 301 p.

⁵ Edge J. Essentials of English Language Teaching. – UK: Longman, 1999. – 256 p.



<i>Trainee development</i>	Emphasizes linguistic accuracy	Balances fluency, accuracy, and teaching adaptability
<i>Reflection and feedback</i>	Minimal reflection; top-down feedback	Emphasizes self-reflection, peer feedback, and adaptation
<i>Preparation for real teaching</i>	Less realistic, more theoretical	More authentic, practice-oriented
<i>Student engagement level</i>	Often passive	Actively engaged in learning process

This table illustrates that while traditional methods contribute to rule-based knowledge, integrative approaches align more closely with the dynamic needs of real-world EFL teaching. It supports the argument that a blended model may yield the most effective outcomes in modern teacher education. The comparison highlights that integrative approaches better equip future EFL teachers with practical communication and classroom management skills. While traditional methods strengthen theoretical knowledge, integrative models offer a more comprehensive, learner-centered foundation essential for real-life teaching contexts and evolving educational demands.

Conclusion. This study has compared traditional and integrative approaches in EFL teacher training, focusing on their effectiveness in preparing pre-service teachers for modern classroom realities. While traditional methods emphasize grammatical competence, rule-based instruction, and passive knowledge acquisition, they often fall short in cultivating the communicative and adaptive skills essential for real-life teaching. In contrast, integrative approaches drawing from communicative, task-based, and content-integrated models offer a dynamic and holistic framework that enhances not only oral proficiency but also pedagogical flexibility, reflective thinking, and student-centeredness.


Empirical findings from classroom observations and participant feedback demonstrate that integrative models lead to higher motivation, increased fluency, and improved readiness to handle interactive teaching environments. These outcomes underline the need for teacher education programs to adopt more integrative strategies or hybrid models that merge the strengths of both paradigms. Ultimately, equipping future English teachers with communicative competence, methodological adaptability, and reflective teaching skills is vital for fostering effective and engaging language learning in today’s diverse classrooms.



Further research is recommended to explore long-term impacts and cross-cultural applicability.

References:

1. Edge J. Essentials of English Language Teaching. – UK: Longman, 1999. – 256 p.
2. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. – UK: Oxford University Press, 1994. – 824 p.
3. Freeman D. Doing Teacher Research: From Inquiry to Understanding. – USA: Heinle ELT, 1998. – 256 p.
4. Hall G. Exploring English Language Teaching: Language in Action. – UK: Routledge, 2011. – 301 p.
5. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – UK: Cambridge University Press, 1981. – 122 p.



«CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023»
 VOLUME-3, ISSUE-04 (31-May)
 MUNDARIJA

1	BOSHQARUV HISOBINI TO'G'RI TASHKIL ETISH Turayeva Gulizahro, Tilovbekova Aziza, Xoldorov Diyor, Ziyodulla Toshtemirov	5-8
2	AGRAR SOHADA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI Jumayeva Z.Q., Jo`rayeva N.B.	9-14
3	SANOAT KORXONALARINI ILMIY - TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QILISHNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI Choriyev J.B.	15-18
4	TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYAVIY OMILLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY VA USLUBIY ASOSLARI Hasanova Sh.Sh.	19-23
5	ОСТЕОАРТРОИДА АДАМТС-4 ВА АДАМТС-5 ФЕРМЕНТЛАРИНИНГ КЛИНИК АҲАМИЯТИ Шерматов Холбек Фахритдинович,, Эшмирзаева Аида Абдуғаниевна	24-25
6	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI YOZISHGA O'RGATISHDAN OLDINGI QOIDALAR MAJMUI. G.Z.Eshbekova	26-29
7	TA'LIM JARAYONIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI BARQARORLASHTIRISHDA TARBIVANING AHAMIYATI Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi, Axmatova Sitorabonu Uktam qizi	30-33
8	CHET EL ADABIYOTIDAGI QAHRAMONLAR ORQALI O'QUVCHILARDA OG'ZAKI IFODA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH Zaripova Maftuna Bahrom qizi	34-37
9	KASHTACHILIK SAN'ATINING TURLARI VA ULARNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI Allayorova Dildora Sobir qizi	38-42
10	ZAMONAVIY JURNALISTIKANING EKOLOGIK XABARLARNI YORITISHDAGI KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI Abdazova A'loxon Rivojiddin qizi	43-47
11	A COMPARATIVE STUDY OF TRADITIONAL AND INTEGRATIVE APPROACHES IN EFL TEACHER TRAINING Ashurova Zulaykho Kholdaralievna	48-52
	MUNDARIJA	53